

SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



# SURXONDARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

*2022- YIL YANVAR-MAY (DASTLABKI MA'LUMOT)*



# Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022- yil yanvar-may oyida)*

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-may oyida Viloyat korxonalari tomonidan 2255,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-may oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 103,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 89,0 % ni tashkil etdi.

| B | C | D | E |
|---|---|---|---|
| 2,2 % | 89,0 % | 6,9 % | 1,9 % |
| Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | Ishlab chiqaradigan sanoat | Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash | Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish |

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da

| | 2021- yil yanvar-may | 2022- yil yanvar-may |
|---|---|---|
| B | 58,1 % | 41,5 % |
| C | 110,8 % | 103,2 % |
| D | 123,2 % | 119,2 % |
| E | 72,5 % | 96,3 % |

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

*Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning – 23,9 % ga hamda ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 11,3 % ga o‘sishi kuzatildi.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati

**Yanvar-may**

**2022- yil**
**49,9 mlrd. so‘m**

**2022- yil**
**41,5 %**

**2021- yil**
**58,9 mlrd. so‘m**

**2021- yil**
**58,1 %**

**B**

**2020- yil**
**84,7 mlrd. so‘m**

**2020- yil**
**94,0 %**

*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 49,9 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,2 % ini tashkil etdi.*

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda**

**2021- yil**
**B**
**3,5 %**

**2022- yil**
**B**
**2,2 %**

**Yanvar-may**

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*







| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-may | 2022- yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Ko‘mir, ming t. | 116,8 | 95,5 | -21,3 |
| Neft, ming t. | - | 35,9 | 35,9 |







| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-may | 2022- yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Qattiq tuz, ming t. | 9,6 | 12,0 | 2,4 |
| Chaqiq tosh, ming t. | 29,3 | 25,6 | -3,7 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so‘m | Yanvar-may | FHI,% da




*2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2006,5 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 89,0 % ini tashkil etdi.*

**2021- yil yanvar-may** 88,8 %

**2022- yil yanvar-may** 89,0 %

*O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,7 % ni (2021- yilning yanvar-may oylarida – 0,2 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 0,4 % (0,3 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 18,4 % (20,6 %) va quyi texnologiyalisi – 69,4 % (67,6 %)ni tashkil etdi.*



*Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 5,3 % (2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,9 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,3 % (2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 26,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 49,2 % (2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 113,8 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,5 % (2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,5 % (2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,4 %)ni tashkil etdi.*

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**

*O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*




































*2022- yilning yanvar-may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 8,8 ming tonna paxta tolasi (2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 32,3 % ga kamaygan), 9,0 ming tonna boshqa guruhlarga kiritilmagan suyuq neft yoqilg‘isi (mazut) (29,1 % ga kamaygan) 14,5 ming tonna kalava ip (17,3 % ga kamaygan), 26,4 ming tonna neft bitumi (2,0 % ga ko‘paygan) hamda ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-may | 2022- yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| | | | |
| **Paxta tolasi, ming t.** | **13,0** | **8,8** | **-4,2** |
| **Kalava ip, ming t.** | **17,6** | **14,5** | **-3,1** |
| **Boshqa guruhlarga kiritilmagan suyuq neft yoqilg‘isi (mazut), ming t.** | 12,7 | 9,0 | -3,7 |
| **Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming t.** | 48,1 | 48,3 | 0,2 |
| **Sariyog‘, t.** | 0,4 | 0,8 | 0,4 |
| **O‘simlik yog‘i (tozalangan), ming t.** | 1,4 | 1,2 | -0,2 |

## Metallurgiya sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-may oylarida metallurgiya sanoati ulushi 1,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 0,6 m. ga oʻsgan boʻlsa, 2022- yilning yanvar-may oylari yakunlariga koʻra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi esa, 26,3 % ni tashkil etib va ishlab chiqarish hajmi 7,8 mlrd. soʻmni tashkil etdi.*




## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-may oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 5,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 134,3 % ni tashkil etgan boʻlsa, 2022- yilning yanvar-may oylari yakuniga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,0 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 69,9 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 67,6 mlrd. soʻmni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-may oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 18,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 84,6 % ni tashkil etgan boʻlsa, 2022- yilning yanvar-may oylari yakuniga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,5 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 4,2 % ga koʻpaygan va ishlab chiqarish hajmi 393,6 mlrd. soʻmni tashkil etdi.*



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-may oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 69,1 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-may oylari yakuniga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,4 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 83,6 % ni va ishlab chiqarish hajmi 10,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*




## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-may oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 41,1 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 124,9 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 44,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 120,6 % ga o‘sgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 999,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*2021- yilning yanvar-may oylari yakuniga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 96,3 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,9 %, fizik hajm indeksi 77,1 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 110,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-may oylari yakuniga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 95,3 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni, fizik hajm indeksi 126,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 5,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*




## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




*2021- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 89,6 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 9,7 % ni, fizik hajm indeksi 107,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 219,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-may oylari yakuniga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 169,1 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni, fizik hajm indeksi 54,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 5,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 155,9 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,9 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 119,2  % ga oshganligi kuzatildi.




### Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-may | 2022- yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya, mln.kVt.s** | 53,2 | 101,1 | 47,9 |
| **Issiqlik energiyasi, ming gkal** | 21,1 | 18,3 | -2,8 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 42,7 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,9 % ini) tashkil etdi.




## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-may | 2022- yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, *mlrd. so‘m*** | 2,9 | 1,9 | -1,0 |
| **Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo‘qotish bo‘yicha xizmatlar, *mlrd. so‘m*** | 9,5 | 10,9 | 1,4 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar 23,4 mlrd. so‘m, oqova suvlarini yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 1,9 mlrd. so‘m shuningdek, 10,9 mlrd. so‘m boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo‘qotish bo‘yicha xizmatlar ishlab chiqarildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 797,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 111,1 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 35,4 % ni tashkil etdi.*

### Oziq-ovqat mahsulotlari

**2021- yil yanvar-may** — **42,7 %**

**2022- yil yanvar-may** — **42,9 %**

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

**2021- yil yanvar-may** — **57,3 %**

**2022- yil yanvar-may** — **57,1 %**

*Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,6 % (2021- yil yanvar-may oylarida 0,9 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jarqo‘rg‘on tumani 17,9 % ni, Sho‘rchi tumaniga to‘g‘ri kelib 16,0 % ni, Termiz sh. 15,3 % ni tashkil etdi.*

*Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida Viloyat o‘sish sur’ati (111,1 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Qumqo‘rg‘on(165,1 %), Termiz (149,6 %), Jarqo‘rg‘on (128,6 %), Bandixon (122,9 %), Sherobod (118,3 %) tumanlarida qayd etildi.*

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jarqo‘rg‘on tumani 18,4 % ni, Sho‘rchi tumaniga to‘g‘ri kelib 14,2 % ni, Termiz sh. 16,1 % ni tashkil etdi.*




**688,0** mlrd. so‘m
*2020- yil yanvar-may*

**686,2** mlrd. so‘m
*2021- yil yanvar-may*

**797,9** mlrd. so‘m
*2022- yil yanvar-may*




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste’mol mahsulotlarining ulushi

**2020- yil** — **101,8 %**

**2021- yil** — **104,9 %**

**2022- yil** — **111,1 %**

## Surxondaryo Viloyatsi hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jarqo‘rg‘on tumaniga to‘g‘ri kelib 18,5 % ni, shuningdek, Qumqo‘rg‘on tumani 10,9 % ni, Termiz shahri esa 15,4 % ni tashkil etdi.*

### Surxondaryo Viloyati

**2020- yil**
1868,7 mlrd. so‘m
*2020- yil yanvar-may*

**2021- yil**
2050,3 mlrd. so‘m
*2021- yil yanvar-may*

**2022- yil**
2255,1 mlrd. so‘m
*2022- yil yanvar-may*



107,1 %
**2020- yil**
*2020- yil yanvar-may*

105,8 %
**2021- yil**
*2021- yil yanvar-may*

103,9 %
**2022- yil**
*2022- yil yanvar-may*



## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jarqo‘rg‘on (1834,3 ming so‘m), Termiz shahri (1827,1 so‘m), Sherobod (1193,0 so‘m) hamda Termiz (1699,9 ming so‘m) tumanlarida o‘rtacha Viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (819,9 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.*




### Surxondaryo Viloyati

2020- yil
709,2 ming so‘m
*2020- yil yanvar-may*

2021- yil
763,1 ming so‘m
*2021- yil yanvar-may*

2022- yil
819,9 ming so‘m
*2022- yil yanvar-may*



01 — 2020- yil — 105,5 %
*2020- yil yanvar-may*

02 — 2021- yil — 103,6 %
*2021- yil yanvar-may*

03 — 2022- yil — 101,5 %
*2022- yil yanvar-may*

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 290,1 ming so‘m bo‘lgani holda, Termiz shahrida – 641,2 ming so‘mni, Termiz tumanida – 476,9 ming so‘mni, Jarqo‘rg‘on tumanida – 627,3 ming so‘mni va Sho‘rchi tumanida – 585,0 ming so‘mni tashkil etdi.*

### Surxondaryo Viloyati

**2020- yil**
261,1 ming so‘m
*2020- yil yanvar-may*

**2021- yil**
255,4 ming so‘m
*2021- yil yanvar-may*

**2022- yil**
290,1 ming so‘m
*2022- yil yanvar-may*



**2020- yil** 99,6 %
*2020- yil yanvar-may*

**2021- yil** 102,8 %
*2021- yil yanvar-may*

**2022- yil** 108,5 %
*2022- yil yanvar-may*

| | o‘sish sur’ati | ming so‘m |
|---|---|---|
| Sho‘rchi | 98,5 | 585,0 |
| Sherobod | 115,6 | 229,0 |
| Uzun | 98,7 | 169,0 |
| Termiz | 146,4 | 476,9 |
| Sariosiyo | 98,6 | 225,8 |
| Oltinsoy | 106,7 | 131,1 |
| Muzrabot | 102,7 | 108,9 |
| Qiziriq | 97,9 | 158,2 |
| Qumqo‘rg‘on | 161,6 | 194,6 |
| Jarqo‘rg‘on | 125,8 | 627,3 |
| Denov | 84,5 | 200,5 |
| Boysun | 100,5 | 193,3 |
| Bandixon | 119,5 | 35,0 |
| Angor | 101,0 | 202,6 |
| Termiz sh. | 110,0 | 641,2 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1460,8 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 64,8 % ni tashkil etdi.*




**Surxondaryo viloyati**

**2020- yil**
**744,1 mlrd. so‘m**
*2020- yil yanvar-may*

**2021- yil**
**770,7 mlrd. so‘m**
*2021- yil yanvar-may*

**2022- yil**
**1460,8 mlrd. so‘m**
*2022- yil yanvar-may*



**39,2 %**
**2020- yil**
*2020- yil yanvar-may*

**37,6 %**
**2021- yil**
*2021- yil yanvar-may*

**64,8 %**
**2022- yil**
*2022- yil yanvar-may*

## Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*Bugungi kunda Viloyatda 4 682 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 812 tasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 17,3 % i) Termiz shahriga, 545 tasi (11,6 %) Denov tumaniga, 363 tasi (7,8 %) Sho‘rchi tumaniga, 304 tasi (6,5 %) Qumqo‘rg‘on tumaniga va 299 tasi (6,4 %) Termez tumaniga to‘g‘ri kelmoqda.*




### Jami yangi tashkil etilgan

**2020- yil** — 891 dona

**2021- yil** — 695 dona

**2022- yil** — 375 dona



### Jami faoliyat yuritayotgan

**2020- yil** — 3378 dona

**2021- yil** — 4406 dona

**2022- yil** — 4 682 dona